Seminar-trening

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-390-sonli qarorida belgilangan vazifalar asosida Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy tashkilotlar xodimlari ishtirokida fan yo‘nalishlari bo‘yicha mahorat darslari, seminar-trening, tematik vebinar, onlayn maslahatlashuvlar o‘tkazish bo‘yicha 2026-yilga mo‘ljallangan oliy ta’lim tashkilotlari kesimida reja-jadval ishlab chiqildi.

Ushbu mahorat darslari va seminar-treninglar Oliy ta’lim tashkilotlarida Fanlar akademiyasining ilmiy tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan akademiklar hamda sohaning etakchi olimlari tomonidan olib boriladi.

Mahorat darslari va seminar-treninglar masofaviy texnologiyalarni qo‘llagan holda onlayn tashkil etiladi va barcha xohlovchilar ishtirok etishi mumkin.

Tasdiqlangan mahorat darslari va seminar-treninglarni ko'rish (pdf-1,9 mb)